“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=393

2026-yil
10-son
oktabr
ISSN 3093-8546



Ichki ishlar organlari xodimlari uchun xavf-xatarni qoplash kafolatlari: qiyosiy-huquqiy tahlil

Lola Radjapova,
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Kriminalistik ekspertizalar kafedrasi boshlig‘i
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
e-mail: lolaradjapova8808@gmail.com

Аннотация. Maqolada ichki ishlar organlari xodimining hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulkiga xizmat bilan bog‘liq holda yetkazilgan zararni qoplash kafolatlari Belarus, Moldova, Qozog‘iston Respublikalari va Germaniya Federativ Respublikasi qonunchiligi bilan qiyosiy tahlil qilingan. Kafolatning mazmuni to‘rt elementda – sug‘urta hodisasi, to‘lov oluvchilar doirasi, hisoblash bazasi va to‘lovni rad etish asoslarida o‘rganilib, milliy tartibga solish mazmunan xorijiy yechimlardan qolishmasligi, asosiy farq esa normativ kuch darajasida ekanligi asoslanadi. Kasbiy psixologik xavf misolida zararning oldini olishga qaratilgan preventiv kafolatlar g‘oyasi ilgari suriladi va “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonunni takomillashtirish bo‘yicha takliflar beriladi.

Калит сўзлар. ichki ishlar organlari xodimi, ijtimoiy-huquqiy himoya, majburiy davlat sug‘urtasi, sug‘urta hodisasi, bir yo‘la nafaqa, normativ kuch, psixologik xavf, preventiv kafolat.

Аннотация. В статье проводится сравнительный анализ гарантий возмещения вреда, причинённого жизни, здоровью и имуществу сотрудника органов внутренних дел в связи со службой, с законодательством Республики Беларусь, Республики Молдова, Республики Казахстан и Федеративной Республики Германия. Содержание гарантии рассматривается через четыре элемента – страховой случай, круг получателей, базу исчисления и основания отказа в выплате; обосновывается, что национальное регулирование по содержанию не уступает зарубежным решениям, а основное различие заключается в уровне нормативной силы. На примере профессионального психологического риска выдвигается идея превентивных гарантий и формулируются предложения по совершенствованию Закона «Об органах внутренних дел».

Ключевые слова. сотрудник органов внутренних дел, социально-правовая защита, обязательное государственное страхование, страховой случай, единовременное пособие, нормативная сила, психологический риск, превентивная гарантия.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Annotation. The article provides a comparative analysis of guarantees of compensation for harm caused to the life, health and property of an internal affairs officer in connection with service, drawing on the legislation of Belarus, Moldova, Kazakhstan and Germany. The guarantee is examined through four elements–the insured event, the range of beneficiaries, the calculation base and the grounds for refusing payment. The article argues that national regulation is not inferior to foreign solutions in substance, the main difference lying in the level of normative force. Using occupational psychological risk as an example, it advances the idea of preventive guarantees and proposes amendments to the Law“On Internal Affairs Bodies”.

Keywords. internal affairs officer, social and legal protection, compulsory state insurance, insured event, lump-sum benefit, normative force, psychological risk, preventive guarantee.

Kirish. Ichki ishlar organlari xodimining xizmati boshqa kasblarga nisbatan yuqori jismoniy va ruhiy xavf bilan bog‘liq bo‘lib, kuch ishlatish, qurollangan shaxslar bilan to‘qnashuv, favqulodda vaziyatlarda harakat qilish uning odatiy vazifalari doirasiga kiradi. Davlat xodimdan bu xavfni qabul qilishni talab qilar ekan, xavf ro‘yobga chiqqan taqdirda yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini ham o‘z zimmasiga oladi. Aynan shu majburiyat xodimga yuklangan cheklovlar va unga beriladigan kafolatlar o‘rtasidagi muvozanatning eng sezgir bo‘g‘ini hisoblanadi.

Xavf-xatarni qoplash kafolatlarining o‘ziga xosligi ularning shartli xarakteridadir. Moddiy ta'minot kafolatlari (pul ta'minoti, ustamalar) xodimga xizmat davomida muntazam beriladi, xavfni qoplash kafolati esa xizmatning o‘zidan emas, xizmat chog‘ida yuz bergan hodisadan kelib chiqadi. Demak huquqiy munosabat ikki bosqichda shakllanadi, avval xizmat munosabati, keyin sug‘urta hodisasi. Kafolat ko‘pincha kutilmagan, fojiali vaziyatda – xodim halok bo‘lgan yoki jarohat olgan paytda amalga oshirilgani sababli, uning mazmuni nizo yuzaga kelishidan oldin aniq belgilangan bo‘lishi shart.

O‘zbekiston Respublikasi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonunining 42-moddasi xodimlarning Davlat byudjeti va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan majburiy davlat sug‘urtasiga tortilishini belgilaydi [1]. Kafolatning amaliy mazmuni esa Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi 354-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomda ochib berilgan [2]. Ushbu ikki darajali tartibga solishning xorijiy davlatlar tajribasi bilan qiyosiy tahlili ilmiy adabiyotda yetarlicha yoritilmagan.

Tadqiqotning maqsadi – xavf-xatarni qoplash kafolatlarini Belarus, Moldova, Qozog‘iston Respublikalari va Germaniya Federativ Respublikasi qonunchiligi bilan yagona tahlil tuzilmasi asosida qiyoslash hamda milliy qonunchilikni takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy, formal-yuridik va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi.

Qiyosni normalar hajmidan boshlash mumkin. Milliy Qonunning 42-moddasi bitta jumladan iborat, Belarusning 2007-yilgi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonunida esa masala bir necha moddada [3], Qozog‘istonning 2011-yilgi “Huquqni muhofaza qilish xizmati to‘g‘risida”gi Qonunida [4] va Moldovaning 288/2016-son Qonunida [5] ko‘p qismli moddalarda, Germaniyada esa Amaldorlar ta'minoti to‘g‘risidagi qonunning alohida bo‘limida [6] tartibga solingan. Biroq norma hajmi o‘z-o‘zidan himoya darajasini ko‘rsatmaydi balki qisqa norma aniq qonunosti mexanizmiga tayansa samarali ishlaydi, keng norma esa ijro mexanizmisiz deklarativ bo‘lib qoladi. Shu bois qiyos mazmun bo‘yicha, to‘rt element kesimida olib borildi.

Sug‘urta hodisasi. Belarus qonunchiligi xodimning hayoti va sog‘lig‘iga jinoiy tajovuz hamda huquqbuzarlikning oldini olish bilan bog‘liq holatlarni asosiy guruh sifatida ajratadi [3], Moldova va Qozog‘iston esa kengroq formulani – xizmat majburiyatlarini bajarish davrida olingan jarohat va kasallikni qo‘llaydi [4; 5]. Eng aniq ta'rifni German huquqi beradi, unga ko‘ra xizmat hodisasi deganda tashqi ta'sirga asoslangan, to‘satdan yuz bergan, joy va vaqt jihatidan aniqlanadigan, tana shikastiga olib kelgan hamda xizmat vazifasini bajarish chog‘ida sodir bo‘lgan voqea tushuniladi [6]. Bu to‘rt belgi xizmat hodisasini kasbiy kasallikdan va xizmatdan tashqaridagi hodisadan ajratish imkonini beradi. Milliy Qonunda sug‘urta hodisasining ta'rifi yo‘q, 354-son qaror bilan tasdiqlangan Nizom esa uni teskari usulda xodim xizmat majburiyatini bajarayotgan deb e'tirof etilmaydigan holatlarni sanash orqali belgilaydi [2].

Himoyaning vaqt bo‘yicha davomiyligi ham muhim. Belarus va Qozog‘iston xizmatdan bo‘shagandan keyin bir yil ichida yuz bergan o‘lim yoki nogironlikni, agar u xizmat davrida olingan jarohat oqibati bo‘lsa, sug‘urta hodisasi deb tan oladi [3; 4]. Milliy Nizomda ham shu mantiqdagi qoida mavjud bo‘lib, og‘ir yoki o‘rtacha og‘ir tan jarohati tufayli bo‘shatilgan xodim bir yil ichida shu jarohat oqibatida vafot etsa, oilasiga ilgari to‘langan nafaqa bilan halokat nafaqasi o‘rtasidagi farq to‘lanadi [2]. Biroq milliy yechim faqat vafot holatini qamraydi, xorijiy yechimlar esa nogironlik belgilanishini ham.

Hisoblash asoslari. Belarusda asos lavozim maoshi, maxsus unvon maoshi va xizmat stajiga ustama yig‘indisidan iborat bo‘lib, halokatda o‘n yillik, nogironlik guruhiga qarab besh, to‘rt yoki uch yillik summa to‘lanadi [3]. Moldova ikki pog‘onali mexanizm qo‘llaydi, jarohat og‘irligiga qarab bir, uch yoki besh oylik maosh, xizmat tugatilganda esa mehnat qobiliyatining yo‘qotilgan har bir foizi uchun o‘rtacha oylik ish haqi miqdorida nafaqa to‘lanadi [5]. Foizli hisoblash zararni guruhli tizimga qaraganda aniqroq aks ettiradi, chunki mehnat qobiliyatining yo‘qotilishi amalda uzluksiz kattalikdir, biroq u tibbiy-ijtimoiy ekspertizaga yuqori talab qo‘yadi. Germaniyada esa maxsus xavfli xizmat hodisasi uchun qat'iy summalar belgilangan bo‘lib, mehnat qobiliyatini kamida ellik

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

foizga yoʻqotgan amaldorga 150 000 yevro, halok boʻlganda beva va pensiya huquqiga ega bolalarga jami 100 000 yevro toʻlanadi [6]. Qat'iy summa tushunarli, lekin muntazam indeksatsiyani talab qiladi, ish haqiga karrali hisoblash esa inflyatsiyadan oʻz-oʻzidan himoyalangan.

Milliy Nizom aynan karrali modelni qoʻllaydi unga koʻra, Vatan himoyasi yoʻlida halok boʻlgan xodimning oilasiga lavozim maoshi va maxsus unvon maoshi yigʻindisining 150 baravari, xizmat majburiyatlarini bajarish chogʻida halok boʻlganda 100 baravari, ogʻir tan jarohatida 50 baravari, oʻrtacha ogʻir tan jarohatida 20 baravari miqdorida nafaqa tayinlanadi [2]. Bu miqdorlar xorijiy yechimlardan kam emas, ayrim pozitsiyalarda esa yuqori. Shu bilan birga, bir martalik toʻlovlardan tashqari uzoq muddatli oylik kompensatsiya mexanizmi milliy tizimda mavjud emasligini hisobga olsak, himoya darajasini barcha xorijiy modellardan mutlaq yuqori deb baholash asossiz boʻladi.

Toʻlovni rad etish asoslari. Moldova qonuni istisnolarni aniq koʻrsatadi, hodisa xodimning oʻzi sodir etgan jinoyat yoki huquqbuzarlik, ixtiyoriy ravishda spirtli ichimlik, giyohvandlik yoki zaharli moddalar iste'moli yoxud xizmat bilan bogʻliq boʻlmagan boshqa harakatlar natijasida yuz bergan boʻlsa, toʻlov amalga oshirilmaydi [5]. Qozogʻiston umumiy formulani qoʻllaydi [4]. Milliy Nizomdagi roʻyxat Moldova yechimiga deyarli mos keladi [2].

Shunday qilib, toʻrt elementning barchasi milliy tartibga solishda mavjud va mazmunan xorijiy yechimlardan qolishmaydi. Asosiy farq boshqa joyda – normativ kuch darajasida. Tahlil qilingan toʻrt xorijiy yurisdiksiyada bu elementlar qonun darajasida mustahkamlangan, Oʻzbekistonda esa Hukumat qarori bilan tasdiqlangan Nizomda belgilangan, Qonun esa sugʻurta faktini e'lon qilish bilan cheklanadi. Bu farq uch jihatdan ahamiyatli. Birinchidan, qonunosti hujjati ijro organining oʻz qarori bilan oʻzgartiriladi: 354-son qarorning oʻzi 2017–2021-yillarda qabul qilingan oʻn yettita Hukumat qarorini kuchini yoʻqotgan deb topgani bu sohadagi tartibga solishning qanchalik tez-tez oʻzgarganini koʻrsatadi [2]. Ikkinchidan, nizo holatida sud qonunosti hujjatini qonunga muvofiqligi nuqtai nazaridan baholashga majbur boʻladi, qonunda esa tayanch norma yoʻq. Uchinchidan, kafolat xodim uchun qonundan bilinadigan huquq emas, idoraviy qarorga bogʻliq imkoniyat boʻlib qoladi. Bu xulosalar normativ tahlildan kelib chiqqanini va ularning amaliy koʻlami sud va ma'muriy amaliyotni alohida oʻrganishni talab qilishini qayd etish lozim.

Xodimning mol-mulkiga yetkazilgan zarar masalasida esa milliy yechim qonun darajasida mustahkamlangan: Qonunning 39-moddasiga koʻra, xodim yoki uning yaqin qarindoshlarining mol-mulkiga xizmat bilan bogʻliq yetkazilgan zarar Davlat byudjeti hisobidan toʻliq hajmda qoplanadi va keyinchalik aybdordan undiriladi [1]. Qozogʻiston va Moldova ham byudjetdan toʻliq qoplash va regress modelini tanlagan [4; 5], Belarus esa masalani sugʻurta orqali hal qiladi [3]. Bu yerda milliy norma koʻpchilik

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

yechimi bilan bir qatorda turadi.

Nihoyat, qiyosiy tahlil kafolatlar tizimining bir bo‘shlig‘ini ko‘rsatadi – kasbiy psixologik xavf. Yigirma to‘rt davlatdan 272 463 nafar xodimni qamragan metatahlil politsiya xodimlari orasida ruhiy salomatlik bilan bog‘liq muammolar keng tarqalganini va ularning asosiy xavf omili kasbiy zo‘riqish ekanini ko‘rsatgan [9]. Yevropa Kengashining Rec (2001)10-son tavsiyasining 32-bandi politsiya ishining o‘ziga xosligini hisobga olgan holda sog‘liqni saqlash va xavfsizlik bo‘yicha maxsus choralar zarurligini qayd etadi [7]. Moldova qonuni ruhiy zo‘riqish holatida o‘tkaziladigan tadbirlarni kasbiy xavfni qoplash predmetiga bevosita kiritadi [5], Qozog‘iston qonunining 54-1-moddasi esa psixologik ishni shaxsiy tarkib bilan ishlashning mustaqil yo‘nalishi sifatida belgilaydi [4]. Birinchi yechim zararni qoplaydi, ikkinchisi uning oldini olishga qaratilgan. Milliy qonunchilikda psixologik yordam va reabilitatsiya mustaqil kafolat sifatida ajratilmagan.

Bu misol muhim nazariy xulosaga olib keladi. Kafolatlar tizimi hozirgi ko‘rinishida asosan zarar yuz bergandan keyingi holatga yo‘naltirilgan: jarohat olinsa – kompensatsiya, halokat yuz bersa – oilaga to‘lov. Psixologik zarar esa yillar davomida to‘planadi va kompensatsiya bilan to‘liq qoplanmaydi, unga nisbatan yagona samarali vosita – oldini olish. Shu sababli zararni qoplash kafolatlari bilan bir qatorda zararning oldini olishga qaratilgan preventiv kafolatlar toifasini ajratish zarur. Ular alohida guruh emas, balki kafolatning ta'sir vaqtiga ko‘ra ajratiladigan va barcha guruhlarda uchrashi mumkin bo‘lgan ko‘ndalang toifa hisoblanadi.

Xulosa. O‘tkazilgan tahlil xavf-xatarni qoplash kafolatlari bo‘yicha milliy tartibga solish mazmunan rivojlanmagan degan farazni tasdiqlamadi: sug‘urta hodisasining chegarasi, himoyaning bir yillik davomiyligi, karrali hisoblash bazasi va rad etish asoslari mavjud. Bu Yu.V. Bykovskayaning turli davlatlar politsiyasidagi ijtimoiy kafolatlar tizimi o‘xshash tuzilishga ega, farqlar esa to‘lovlar miqdori va amalga oshirish mexanizmida, degan xulosasiga mos keladi [8]. Huquqiy tahlil bunga yana bir o‘lchovni qo‘shadi: bir xil mazmundagi kafolat turli davlatlarda turli normativ kuchdagi hujjatda mustahkamlanadi va aynan shu o‘lchov kafolatning barqarorligi hamda sud himoyasiga layoqatini belgilaydi.

Shu asosda, birinchidan, “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonunning 42-moddasini sug‘urta kafolatining to‘rt asosiy elementi bilan to‘ldirish taklif etiladi. Moddada sug‘urta hodisasi sifatida xodimning xizmat majburiyatlarini bajarishi bilan sababiy bog‘liq holda halok bo‘lishi, tan jarohati olishi yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotishi, shuningdek bo‘shatilgandan keyin bir yil ichida xizmat davrida olingan jarohat oqibatida vafot etishi belgilanishi lozim. To‘lov oluvchilar doirasi, lavozim maoshi va maxsus unvon maoshi yig‘indisiga nisbatan karrali hisoblash bazasi hamda to‘lovni rad etishning umumiy asoslari ham Qonunda ko‘rsatilishi, aniq koeffitsiyentlar esa qonunosti darajasida qoldirilishi maqsadga muvofiq. Bu taklif yangi moliyaviy majburiyat

yuklamaydi, balki amalda ishlayotgan normalarning normativ kuchini oshiradi.

Ikkinchidan, Belarus va Qozog‘iston tajribasini hisobga olib, bo‘shatilgandan keyingi bir yillik himoyani vafot holati bilan cheklamasdan, xizmat davrida olingan jarohat oqibatida nogironlik belgilangan holatlarga ham tatbiq etish lozim.

Uchinchidan, Qonunning ijtimoiy kafolatlar ro‘yxatini “xizmat faoliyati bilan bog‘liq psixologik xavflarning oldini olish va psixologik reabilitatsiya” unsuri bilan to‘ldirish taklif etiladi. Bu yangi to‘lov turi emas, balki preventiv kafolatni qonun darajasida tan olishdir.

To‘rtinchidan, Moldova modelidagi mehnat qobiliyatining yo‘qotilgan foiziga bog‘langan hisoblash zararni eng aniq aks ettiradi, biroq uni o‘zlashtirish tibbiy-ijtimoiy ekspertiza tizimini tayyorlashni talab qiladi, shu bois u istiqboldagi yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi O‘RQ-407-son “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi 354-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom va qarorga 4-ilova // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: lex.uz.

3. Закон Республики Беларусь от 17 июля 2007 г. № 263-З «Об органах внутренних дел Республики Беларусь», ст. 40–42 // Национальный правовой Интернет-портал Республики Беларусь: pravo.by.

4. Закон Республики Казахстан от 6 января 2011 года № 380-IV «О правоохранительной службе», ст. 54-1, 64, 66, 69 // ИПС «Әділет»: adilet.zan.kz.

5. Legea Republicii Moldova nr. 288 din 16.12.2016 privind funcţionarul public cu statut special din cadrul Ministerului Afacerilor Interne, art. 43, 66–68 // Monitorul Oficial al Republicii Moldova. – 2017. – Nr. 40–49. – Art. 85.

6. Beamtenversorgungsgesetz (BeamtVG), §§ 30, 31, 37, 43 // gesetze-im-internet.de.

7. Recommendation Rec (2001)10 of the Committee of Ministers to member states on the European Code of Police Ethics (19 September 2001), para. 32.

8. Быковская Ю.В. Социальная политика в органах внутренних дел зарубежных стран: монография. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2015.

9. Syed S., Ashwick R., Schlosser M., Jones R., Rowe S., Billings J. Global prevalence and risk factors for mental health problems in police personnel: a systematic review and meta-analysis // Occupational and Environmental Medicine. – 2020. – Vol. 77, No. 11. – P. 737–747.